

Toshkent - Andijon - Toshkent reysi haqida rasmiy xabar

2022 12 August

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati quyidagilarni ma’lum qiladi:

Bugun, 12-avgust kuni Toshkent – Andijon – Toshkent yo’nalishidagi HY-091/092 reyslari Boeing 757 havo kemasining texnik nosozligi sababli belgilangan yo’nalish bo’yicha parvozni amalga oshira olmadi. Andijon xalqaro aeroporti Airbus A321neo (LR) havo kemasini qabul qilish imkoniyati yo’qligi sababli parvoz Toshkent – Namangan – Toshkent yo’nalishiga o’zgartirildi.

Keltirilgan noqulayliklar uchun yo’lovchilar va ularni kutib oluvchilardan uzr so’raymiz.